BOSHLANG‘ICH SINFLARDA “4K” MODELI ASOSIDA TASHKIL ETILGAN DARSLAR SAMARADORLIGI

https://doi.org/10.70728/conf.edu.v3.i1.009

Esonova Ro‘zigul Ilhom qizi
Termiz iqtisodiyot va servis universiteti
Ta’lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
(boshlag‘ich ta’lim) mutaxsissiligi 2- bosqich magistranti
riesonova@gmail.com
tel:+998779990143
+998906430143

ANNOTATSIYA Mazkur maqolada boshlang‘ich sinflarda “4K” modeli (tanqidiy fikrlash, ijodkorlik, muloqot va hamkorlik) asosida tashkil etilgan darslarning samaradorligini oshirish masalasi ilmiy-nazariy va amaliy jihatdan yoritiladi. Bu yondashuvi o‘quvchilarning bilish jarayonini kuchaytirishi, o‘quv motivatsiyasini barqarorlashtirishi uchun xizmat qiladi. Muammoni yechish va refleksiyasi ko‘nikmalari rivojlanishi hamda sinf ichidagi ijtimoiy-psixologik muhitni yaxshilanishini ta’minlovchi didaktik mexanizm sifatida asoslanadi. Xalqaro tadqiqotlar (kompetensiyaviy ta’lim, formatif baholash, o‘zini boshqarib o‘rganish, “growth mindset”) tahlili hamda O‘zbekiston ta’lim siyosatiga oid normativ hujjatlar talablari asosida “4K” modelini boshlang‘ich ta’lim jarayoniga integratsiya qilishning metodik yo‘llari ko‘rsatib beriladi.

Tayanch so‘zlar: “4K” modeli, tanqidiy fikrlash, ijodkorlik, muloqot, hamkorlik, boshlang‘ich ta’lim, dars samaradorligi, kompetensiyaviy yondashuv, formatif baholash, refleksiya, differensial ta’lim, o‘quv motivatsiyasi.

ЭФФЕКТИВНОСТЬ УРОКОВ, ОРГАНИЗОВАННЫХ НА ОСНОВЕ МОДЕЛИ «4К» В НАЧАЛЬНЫХ КЛАССАХ

АННОТАЦИЯ В данной статье рассматривается вопрос повышения эффективности уроков, организованных на основе модели «4К» (критическое мышление, креативность, коммуникация и сотрудничество) в начальных классах с научной, теоретической и практической точек зрения. Такой подход служит укреплению познавательного процесса учащихся, стабилизации их учебной мотивации. Он основан на развитии навыков решения проблем и рефлексии, а также выступает в качестве дидактического механизма, обеспечивающего улучшение социально-психологической среды в классе. На основе анализа международных исследований (компетентностно-ориентированное образование, формирующее оценивание, самонаправленное обучение, «ориентация на рост») и требований нормативно-правовых документов по образовательной политике Узбекистана

представлены методические пути интеграции модели «4К» в процесс начального образования.

Ключевые слова: модель «4К», критическое мышление, креативность, коммуникация, сотрудничество, начальное образование, эффективность урока, компетентностно-ориентированный подход, формирующее оценивание, рефлексия,

EFFECTIVENESS OF LESSONS ORGANIZED ON THE BASIS OF THE "4C"MODEL IN PRIMARY GRADES

ABSTRACT This article discusses the issue of increasing the effectiveness of lessons organized on the basis of the "4C" model (critical thinking, creativity, communication and cooperation) in primary grades from a scientific, theoretical and practical perspective. This approach serves to strengthen the cognitive process of students, stabilize their learning motivation. It is based on the development of problem-solving and reflection skills and as a didactic mechanism that ensures the improvement of the socio-psychological environment in the classroom. Based on the analysis of international research (competence-based education, formative assessment, self-directed learning. "growth mindset") and the requirements of regulatory documents on the education policy of Uzbekistan, methodological ways of integrating the "4C" model into the primary education process are shown. **Keywords:** "4C" model, critical thinking, creativity, communication, cooperation, primary education, lesson effectiveness, competency-based approach, formative Active assessment, reflection.

KIRISH Zamonaviy ta'lim tizimida dars samaradorligi endilikda faqat bilim hajmiga emas, balki o'quvchilarda shakllanayotgan tanqidiy fikrlash, ijodkorlik, muloqot va hamkorlik kompetensiyalari bilan baholanmoqda. Ushbu kompetensiyalar majmui esa xalqaro pedagogik adabiyotlarda "4K modeli" (4C skills) nomi bilan tanilgan bo'lib, u XXI asr ta'limining metodologik asosi sifatida e'tirof etilmoqda [1].

O'zbekiston ta'lim siyosatida "4K" modelining normativ asoslari

"4K" modeli O'zbekiston ta'lim siyosatida bevosita nom bilan tilga olinmagan bo'lsa-da, uning mazmuni quyidagi normativ hujjatlarda aniq aks etgan:

- O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 6-noyabrdagi PF–6108-son Farmonida ta'lim sifatini oshirish, mustaqil fikrlovchi va raqobatbardosh kadrlar tayyorlash ustuvor vazifa sifatida belgilangan [10, §2].
- 2021-yil 17-dekabrdagi XTVning 406-son buyrug'i bilan tasdiqlangan Davlat ta'lim standartida boshlang'ich ta'lim bitiruvchisida muloqot, hamkorlik, muammo yechish va ijodiy yondashuv kompetensiyalarini shakllantirish talab etiladi [11, p. 6–8].

- “O‘zbekiston – 2030” strategiyasida inson kapitalini rivojlantirish, zamonaviy ko‘nikmalarni shakllantirish ta’limning asosiy yo‘nalishlaridan biri sifatida belgilangan [12, §4].

Mazkur hujjatlar “4K” modeliga asoslangan darslarni joriy etish nafaqat metodik, balki davlat siyosati darajasida ham qo‘llab-quvvatlanayotganini ko‘rsatadi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA

Boshlang‘ich ta’lim bosqichida “4K” modelining ahamiyati yanada ortadi, chunki aynan shu davrda kichik yoshdagi o‘quvchilarning kognitiv moslashuvi, ijtimoiy muloqoti va o‘rganishga bo‘lgan munosabati shakllanib boshlaydi. Tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, “4K” komponentlariga asoslangan darslar an’anaviy reproduktiv yondashuvga nisbatan o‘quvchilar faolligini, bilimlarni keng va chuqur o‘zlashtirish darajasini hamda o‘zini boshqarib-o‘rganish ko‘nikmalarini sezilarli darajada oshiradi [2, p. 45–47; 3, p. 112].

“4K” modeli va dars samaradorligi o‘rtasidagi bog‘liqlik, asosan, tanqidiy fikrlash (Critical Thinking) va chuqur o‘zlashtirishga yo‘naltirilgan darslar o‘quvchilarda tayyor bilimni qabul qilishdan ko‘ra, tahlil qilish, dalillash va xulosa chiqarish ko‘nikmalarini rivojlantiradi. OECD tomonidan ishlab chiqilgan “*Learning Compass 2030*” hujjatida tanqidiy fikrlash bilimning uzoq muddatli saqlanishi va transfer (yangi vaziyatga ko‘chirish) uchun asosiy omil sifatida ko‘rsatilgan [1, p. 4–6]. Hattie’ning 800 dan ortiq meta-tahlillar asosida olib borgan tadqiqotlari tanqidiy fikrlashni faollashtiruvchi strategiyalar (savol-javob, muammo asosida o‘qitish) dars samaradorligiga 0.60–0.70 ta’sir koeffitsiyenti bilan ijobiy ta’sirini isbotlaydi [4, p. 23]. Ijodkorlik (Creativity) va motivatsiya faoliyatlariga asoslangan darslar (ochiq savollar, muqobil yechimlar, loyiha va rolli topshiriqlar) o‘quvchilarning ichki motivatsiyasini kuchaytiradi. Deci va Ryan’ning Self-Determination Theory nazariyasiga ko‘ra, ijodkorlikni qo‘llab-quvvatlovchi ta’lim muhiti o‘quvchining avtonomiya va kompetentlik ehtiyojlarini qondiradi, bu esa o‘rganishga bo‘lgan barqaror qiziqishni yuzaga keltiradi [5, p. 68–70].

NATIJALAR

Tahlillar shuni ko‘rsatadiki, “4K” modeli asosida tashkil etilgan darslar:

- o‘quvchilarning bilimni chuqur va barqaror o‘zlashtirishini ta’minlaydi [1; 4];
- ichki motivatsiya va ijodiy faollikni kuchaytiradi [5; 6];
- muloqot va hamkorlik orqali ijtimoiy-o‘quv muhitini yaxshilaydi [7–9];
- O‘zbekistonning amaldagi ta’lim siyosati va normativ hujjatlari bilan to‘liq uyg‘unlashadi [10–12].

Boshlang‘ich sinflar misolida olib borilgan tadqiqotlar ijodkorlik elementlari kiritilgan darslarda o‘quvchilar ishtiroki 25–30 % ga oshishini ko‘rsatgan [6, p. 91]. Muloqot (Communication) va ijtimoiy o‘rganish esa, “4K” modelining asosiy muhim komponenti o‘z fikrini aniq ifodalash va tinglash madaniyatini shakllantiradi. Bandura’ning ijtimoiy o‘rganish nazariyasiga ko‘ra, muloqotga asoslangan o‘rganish jarayonida o‘quvchilar

kuzatish va taqlid orqali samaraliroq o‘zlashtiradi [7, p. 22]. Hamkorlik (Collaboration) va o‘quv faolligi

Hamkorlikda o‘qitish (juftliklar, kichik guruhlarda ishlash) o‘quvchilarning faolligini oshirib, ijtimoiy kompetensiyalarni rivojlantirishga xizmat qiladi. Johnson tadqiqotlariga ko‘ra, hamkorlikda tashkil etilgan darslar individual ishlashga nisbatan bilimni o‘zlashtirish samaradorligini 20–25 % ga oshiradi [9, p. 14]. Boshlang‘ich ta’limda hamkorlikka asoslangan darslar o‘quvchilarning darsga ijobiy munosabati va sinf iqlimini yaxshilashi ilmiy jihatdan tasdiqlangan [6, p. 95].

XULOSA Shu bois ham xulosa o‘rnida, boshlang‘ich ta’lim amaliyotida “4K” modelini tizimli joriy etish darslar samaradorligini oshirishning ilmiy asoslangan va strategik muhim yo‘li hisoblanadi. Bundan keng foydalanilganda esa har bir kichik maktab yoshidagi o‘quvchilarning erkin fikrlashi, teran aqliy salohiyatga keng yo‘l olishiga sabab bo‘ladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. OECD. *OECD Learning Compass 2030*. Paris, 2019, pp. 4–6. https://www.oecd.org/education/2030-project/learning-compass-2030/

2. Trilling, B., Fadel, C. *21st Century Skills: Learning for Life in Our Times*. Jossey-Bass, 2019, pp. 45–47. https://files.eric.ed.gov/fulltext/ED519462.pdf

3. Voogt, J., Roblin, N. “A comparative analysis of international frameworks for 21st century competences.” *Journal of Curriculum Studies*, 2020, pp. 110–115. https://doi.org/10.1080/00220272.2019.1704786

4. Hattie, J. *Visible Learning*. Routledge, 2019, pp. 23–25. https://visible-learning.org/hattie-ranking-influences-effect-sizes-learning-achievement/

5. Deci, E., Ryan, R. *Self-Determination Theory*. Guilford Press, 2020, pp. 68–70. https://selfdeterminationtheory.org/

6. P21. *Framework for 21st Century Learning*. 2021, pp. 90–96. https://www.battelleforkids.org/networks/p21/frameworks-resources

7. Bandura, A. *Social Learning Theory*. Englewood Cliffs, 1977, p. 22. https://archive.org/details/sociallearningth0000band

8. Black, P., Wiliam, D. *Inside the Black Box*. 2018 reprint, p. 5. https://www.educationaldesigner.org/ed/volume1/issue1/article2/

9. Johnson, D., Johnson, R. *Cooperative Learning*. Interaction Book Company, 2020, p. 14. https://www.co-operation.org/

10. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti. PF–6108-son Farmon, 06.11.2020. https://lex.uz/docs/5080061

11. O‘zbekiston Respublikasi XTV. 406-son Buyruq, 17.12.2021, pp. 6–8. https://lex.uz/docs/5792494

12. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti. “O‘zbekiston – 2030” strategiyasi, 2023. https://lex.uz/docs/6600411